

"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida 2024-yilning o'tgan 9 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing

// 12.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-azh-va-tarmoq-korxonalarida-2024-yilning-utgan>

Hisobot davrida 49 ta holatda tender tanlovlari va tuzilgan shartnomalar bekor qilinib, 18,4 mlrd so'm pul mablag'lari noqonuniy sarflanishining oldi olindi

AOKAda "O'zkimyosanoat" AJ axborot xizmati rahbari Hojiakbar To'laganov ishtirokida o'tkazilgan brifingda tarmoq korxonalarida 2024-yilning o'tgan 9 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qabul qilingan "O'zkimyosanoat" AJda 16 ta, "Navoiyazot" AJda 32 ta, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 9 ta, "Maksam-Chirchiq" AJda 15 ta, "Ammofos-Maksam" AJda 12 ta hamda "O'zkiyoimpeks" MCHJda 11 ta ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, jami aniqlangan 18 ta holatdagi korrupsion omillarni bartaraf etish choralari ko'rildi.

Hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Jamiyat va uning tarmoq korxonalariga korrupsion va boshqa qonunbuzilish holatlari hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan kelib tushgan murojaatlarning 32 tasi bo'yicha xizmat tekshiruv va o'rganishlar o'tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, to'plangan hujjatlar asosida 12 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 24 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi.

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining tegishli buyrug'iga asosan tuzilgan ishchi guruh tomonidan, joriy yilning 2-choragi davomida "Navoiyazot", "Maksam-Chirchiq", "Ammofos-Maksam" va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJlarining mamlakatimiz hududlarida joylashgan jami 140 ta mineral o'g'itlarni vaqtinchalik saqlovchi vakolatli ijara omborlarida joyiga chiqqan holda o'rganish o'tkazildi. O'rganish davomida 3 ta holatda 9.6 mlrd so'mlik mineral o'g'itlar kamomadi aniqlanib, ayni paytga qadar 5,2 mlrd so'm yetkazilgan moddiy zarar undirildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati